



O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Usmonova Sharifa Gulamovna-

“University of economics and pedagogy” NOTM
katta o'qituvchisi

gulamovna1973@gmail.com

Adhamova Muattaroy-“ University of economics and pedagogy” NOTM,
Filologiya fakulteti talabasi

Pahlavonova Ibodatxon Shodmonbek qizi -“University of economics and
pedagogy”NOTM,
Filologiya fakulteti talabasi

Mo'ydinova Maxbubaxon Sharobiddin qizi-“University of economics and
pedagogy” NOTM, Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning hayotimizdagi o'rni, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, ularni darslarda qo'llash haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, darslarda o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanishda talaba yoki o'quvchi shaxsi bilan muloqot olib borish, uning usullari, dars davomida turli metodlardan foydalanish, ijodkor-o'qituvchi, izlanuvchan-o'qituvchi masalalari ustida ham bahs olib borilgan. Maqola davomida turli innovatsion texnologiyalardan, usullardan foydalanib o'quvchi-yoshlarga mashg'ulot olib borish istiqbollari hamda ulardan kutilayotgan natijalar haqida fikr boradi. Unda yozma ishlarning turli ko'rinishlari, ularning ahamiyati, yozma ishni yozishdagi qonun-qoidalar, o'quvchi ongiga va dunyoqarashiga ta'siri haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, metod, dars, mashg'ulot, dars sifati, samaradorlik, talaba.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Усмонова Шарифа Гуломовна
старший преподаватель, “University of



economics and pedagogy”

gulamovna1973@gmail.com

Адхамова Муаттарой –студентка “ University of economics and pedagogy”

Пахлавонова Ибодат-студентка “University of economics and pedagogy”,

Муйдинова Махбуба- студентка
“University of economics and pedagogy”

Аннотация: в данной статье размышляется о роли цифровых технологий в нашей жизни, важности использования инновационных технологий в образовательном процессе, их применении на занятиях. Также возникли споры по поводу использования новых педагогических технологий преподавания на уроках, общения с личностью ученика или ученицы, его методов, использования различных приемов во время урока, вопросов творца-учителя, любознательного-воспитателя.

В ходе статьи мы обсудим перспективы обучения студентов и молодежи с использованием различных инновационных технологий, методов, а также ожидаемые от них результаты. В ней рассматриваются различные проявления письменной работы, их важность, законы и правила написания письменного произведения, его влияние на сознание и мировоззрение читателя.

Ключевые слова: цифровые технологии, инновационные технологии, методика, урок, тренинг, качество урока, эффективность, учащийся.

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE LEARNING PROCESS

Usmonova Sharifa Gulamovna-

“University of economics and pedagogy”

non-governmental higher education institution,Uzbekistan

gulamovna1973@gmail.com

Adhamova Muattaroy –student “ University of economics and pedagogy”

Pakhlavonova Ibodat –student “University of economics and pedagogy”,

Muydinova Makhbuba- student



Annotation: this article reflects on the role of digital technologies in our lives, the importance of using innovative technologies in the educational process, and their application in the classroom. There have also been disputes over the use of new pedagogical teaching technologies in the classroom, communication with the personality of a student or pupil, his methods, the use of various techniques during the lesson, questions from the creator-teacher, the inquisitive-educator. In the course of the article, we will discuss the prospects of teaching students and youth using various innovative technologies, methods, as well as the expected results from them. It examines various manifestations of written work, their importance, the laws and rules of writing a written work, its

Keywords: digital technologies, innovative technologies, method, lesson, classes, quality lesson, student.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga bilim berishda innovatsion texnologiyalarning turli ko'rinishlaridan foydalangan holatda mashg'ulotlarni tashkil etish hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bu masala hozirgi zamon o'qituvchisiga katta vazifalarni yuklaydi. Hozirgi zamon pedagogi qanday bo'lishi kerak? U, avvalo, intellektual salohiyatli, fikrlashi va dunyoqarashi keng,

axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalana oladigan, internet orqali turli qidiruv tizimlaridan kerakli ma'lumotlarni qidirib topa oladigan va eng kamida o'z ona tilidan tashqari birorta chet tilini biladigan, tushunadigan bo'lishi kerak.

Hozirgi zamon pedagogi talabani yoki o'quvchini qiziqarli metodlar bilan o'qitishi zo'r natijalar beradi. 21-asr o'quvchilari juda faol! O'qitish usullari xilma xilligi bilan ularning e'tiborini tortishi mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlari olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda, ko'pincha keksalarda uchraydigan Altsgeymer kasalligini oldini olish va davolash jarayonida ularga o'zga tillarni o'rgatish usuli sinalgan. Ularda bu usul ijobiy natijalar ko'rsatgan. Bu bilan olimlar ilm yosh va vaqt tanlamasligini yana bir bor isbotlab berishdi. Biz pedagoglar o'zimiz ta'lim berayotgan talabalardan ham kelajakda xuddi o'zimiz kabi yetuk kadr bo'lishlari uchun harakat qilmog'imiz kerak bo'ladi.

Tushunmaydigan o'quvchi yoki talaba emas, balki tushuntira olmaydigan ustoz bo'ladi. Innovatsion metodlarni bilish va ulardan dars davomida foydalanish, yangi metodlarni o'z darslarida qo'llash hozirgi zamon ijodkor o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Hozirgi jarayonda o'quv mashg'ulotlarida talabalarga turli innovatsion

metodlardan foydalangan holatda darslarni tashkil etish masalasi pedagoglarning oldidagi muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, o'qituvchi ilk darsga kirganida "Zanjir" metodidan foydalanish mumkin bo'ladi. Bu metodning ahamiyati shundaki, o'qituvchi uchun notanish bo'lgan auditoriyada talabalar bilan yaqindan tanishish imkoniyati paydo bo'ladi. Jarayon quyidagicha bajariladi: o'qituvchi, avvalo, o'zini ismini aytadi va o'ziga xos bitta sifatini aytadi, shundan keyin talaba oldin o'qituvchining ismini va sifatini aytadi, keyin talaba o'z ismini aytadi, o'z ismiga xos bitta sifatni aytadi. Shu tartibda barcha talabalar zanjir sifatida davom ettirishadi. Bu nima beradi? Avvalo, o'qituvchi va talaba o'rtasida iliq munosabat o'rnatiladi. Talabalarning o'zlari ham bir-birlarini yaxshi sifatleri bilan tanishga ulgurishadi. Shuningdek, psixologik jihatdan birinchi bo'lib o'zlarini tanishtirgan talabalarda o'zlariga nisbatan ishonch tuyg'usini oshiradi. Masalan, Sharifa-sabri, Nigora- mehnatkash, Nazokat – chaqqon va h.k.

Talabalarga yodaki diktant yozishdirish ham hozirgi kunda samarali natija beradigan usullardan biridir. Bunday diktanlarni talabalarga yozdirish natijasida ularning orfografik qonun-qoidalarni qay darajada bilishlarini tekshirish mumkin bo'ladi. Buning uchun barcha talabalarga tanish bo'lgan matn tanlanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matnini orfografik me'yorlariga amal qilgan holatda yoddan yozish topshiriladi. Talabalar madhiyaning matnini yoddan yozishadi. Shundan so'ng, avvaldan tayyorlab qo'yilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni elektron doskada talabalar e'tiboriga havola qilinadi. Elektron doska orqali talabalar o'zlari yozgan diktant matnini tekshirishadi. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarning o'zlariga tekshirtiradi yoki talabalar bir-birlarinikini tekshirishadi. Shundan so'ng talabalar qilgan xatolari asosida baholanadi. Bunda orfografik, punktatsion va uslubiy xatolar hisobga olinadi. Xo'sh, bu diktant talabaga nima beradi? Haqli savol tug'iladi. Bu diktant usulini men talaba bilan o'tkazganimda quyidagi holatlar yuz bergan:

talabalarning ko'pchiligi O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni muallifi hamda bastakorning familiyasi, ismi va sharifini bilsa ham yozmaganligini, sarlavhani bo'lsa, aksariyat talabalar yozmaganligini, shuningdek, matnni she'r sifatida bilmasligi aniq bo'ldi. Shuningdek, orfografik va punktatsion xatolarga yo'l qo'yg'anglar ham ko'pchilikni tashkil etdi. So'z qo'llash bilan ham xatolar juda ko'p bo'lgan. Talabalarning ayrimlari madhiyani yoddan bilgan holda, matn ko'rinishida yoza bilmaganliklari ko'zga tashlandi. Yodaki diktantning ahamiyati shundaki, bundan keyin talaba yodlagan matnini e'tiborli o'qishga va yodlashga harakat qiladi.



Yana bitta diktant ko‘rinishlaridan biri lug‘at diktantlar bo‘lib, ularning talabalar uchun ahamiyati shundaki, o‘tilgan har bir mavzuga oid so‘zlar lug‘at diktant ko‘rinishida yozdiriladi. Elektron doskaga avvaldan tayyorlab qo‘yilgan diktant matni talabalarga havola qilinadi. Talabalar o‘zlarining yozgan lug‘at diktantlarini tekshirishadi. Bu esa talabada mavzuga oid terminlar bilan ishlash, atamalarning to‘g‘ri yozishga ko‘nikma va malakalar hosil qilishiga olib keladi. Lug‘at diktantda yo‘l qo‘yilgan xatolar soniga qarab har bir talabaga ball qo‘yiladi. Buning natijasida talaba qilgan vazifasi uchun o‘sha vaqtning o‘zida baholanadi.

Diktantlarning yana bir turi ijodiy diktant bo‘lib, bu yesa talabadan ijodkorlikni va hozirjavoblikni talab qiladi. Diktantning bunday turini yozish ko‘p badiiy asar o‘qigan, lug‘at boyligi ko‘p, dunyoqarashi teran, fikrlari tiniq talabaga juda oson. O‘qituvchi tomonidan mavzu doskaga yoziladi. Talabalarga ijodiy diktantning qay darajada borishi haqida tushuntirish beradi. Mavzuga oid birinchi gapni o‘qituvchi talabalarga yozdiradi. Gap qaysi harfga tugagan bo‘lsa, shu harf bilan boshlanadigan, mavzuga oid gapni talabalar aytishadi. Talabalarning o‘zlari aytgan gaplardan mavzuga mos tushadigani tanlanadi va qaysi talabaning gapi yozishga tanlangan bo‘lsa, o‘sha talaba diktantni navbatdagi gapini yozdiradi. Shu taxlitda ijodiy diktant nihoyasiga yetkaziladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida yozma ishlarning turli usullarda olib borish, ayniqsa, o‘qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanib mashg‘ulotlarni olib borish, juda yaxshi samara beradi. Mashg‘ulotlar davomida shunchaki erkin harakat va ikki daqiqalik muloqot o‘quvchining va talabaning qon aylanishi, aqliy faoliyatini faollashtiradi. Bu jarayonda o‘ndan ortiq ko‘nikma shakllanadi. Bulardan:

- muloqotga kirishish;
- o‘zgalar fikrini qabul qilish;
- o‘z fikrini bayon etish;
- tinglash;
- fikrni tahlil qilish;
- birinchi bo‘lib qadam tashlash;
- ijobiy kayfiyat ulashish;
- tezlik ko‘nikmalari shakllanadi.

Izlanuvchan-o‘qituvchi har qanday sharoitda ham talaba yoki o‘quvchi bilan til topishib keta oladi. Bu esa o‘qituvchidan ozgina ijodkorlik talab qiladi. Dars davomida o‘qituvchi talaba bilan muloqotga kirishar ekan, u verbal va noverbal muloqot shakllaridan ham foydalanib mashg‘ulot olib boradi. Har bir muloqot shakllaridan dars

jarayonida to'g'ri qo'llash, turli mimikalar, qo'l harakatlari orqali darslarni tashkil etish juda samarali natija beradi. Masalan, darsda mimikalardan tashkil topgan o'yin darslar tashkil etish mumkin.

Uchar, uchar osmonda shar.

Osmonda shar uchar.

Men bilaman osmonga shar.

Uchib yeta olmas.

Shu to'rtlikni talabaga yoki o'quvchiga oldin "uchar" so'zini, keyin "shar" so'zini va shu tarzda barcha so'zlarni imo-ishoralar orqali qo'l harakati bilan ko'rsatib berish topshiriladi. Talabalar bu o'yinni o'zlari xohlagan holatda qilib ko'rsatishadi. O'qituvchi tomonidan eng yaxshi qo'l harakati bilan bajarilgan harakat tanlanadi. Bu talabaga nima beradi? Talabaning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, kayfiyatini ko'taradi, ilm olishga bo'lgan ishtiyoqi yuqorilashadi. Bunday o'yinlarni darsning boshida, o'rtasida yoki oxirida olib borish mumkin. Darslar davomida "Kim chaqqon?" "Aqlga hujum" kabi savol-javob tarzidagi mashg'ulotlar ham o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi mumkin. Bunday savol-javobli o'yinlarda an'anaviy auditoriyalarda ma'lumki, talabalar o'tiradigan qatorlar uch qator o'qituvchi uchta qatordan bittadan talabani doska oldiga taklif qiladi. Har bir qatordan chiqqan talabaga mavzuga oid, umumiy bilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan iborat bo'lgan savollar beriladi. Qaysi talaba berilgan savollarga to'liq javob bersa, ana shu talaba rag'batlantiriladi. Masalan, savollar ko'rinish quyidagicha tarzda bo'lishi mumkin: 1-qator uchun savollar:

1. Orfografiyaning tekshirish obyekti nima?

2. Boksda o'yin o'tkaziladigan maydon ring, futbolda futbol maydoni, karateda nima deyiladi?

3. Kamalakning yettita rangini ketma-ketlikda aytib bera olasizmi?

4. Psixologlarning fikricha qaysi oy eng shirin oy hisoblanadi?

5. Qaysi qizning ota-onasi yo'q, lekin bobosi bor?

6. Ukraina, Xitoy, Turkiya va Kanada kabi davlatlarda u ikkitadan, O'zbekiston, Rossiya, Italiyadan u uchtdan, Liviya va Lixstenshteynda u nechta? Gap nima haqida bormoqda?

2-qator uchun savollar.

1. Frazologiyani tekshirish obyekti nima?

- 2.Shaxmat doskasi nechta katakdan iborat, u nechta figura yordamida o‘ynaladi?
 - 3.Aynan bir poytaxt shaharning ichida boshqa bir davlat joylashgan.Bu qaysi shahar va davlat?
 - 4.Koreys tiliga poytaxt so‘zini tarjima qila olasizmi?
 - 5.Qaerda ot ustidan ot sakrab o‘tishini ko‘rish mumkin?
 - 6.Maqlolni davom ettiring. Oltin olma,...
- 3-qator uchun savollar.
- 1.Fonetikaning tekshirish obyekti nima?
 - 2.Futbolda ikkita gol urgan dubl, uchta gol urgan xettrik, to‘rtta gol urgan nima deyiladi?
 - 3.U Jeyms Kukda kichkina, Arnold Shvartsnegrda katta, Madonna va Kleopatradan u yo‘q.Rim papasida bor bo‘lsa ham, u ishlatmaydi.Gap nima haqida bormoqda?
 - 4.Inson nima uchun orqasiga qaraydi?
 - 5.Nimaning 5 ta barmog‘i bor, lekin tirnog‘i y‘q?
 - 6.Maqlolni davom ettiring.Toma-toma ko‘l bo‘lur,

Xulosa qilib aytganda,o‘qituvchilarning o‘rgatiladigan material mazmunini tanlashda axborot va innovatsion texnologiyalaridan foydalanib mashg‘ulotlarni tashkil etishlari muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birgalikda gazeta, jurnallar, radio va televideniye, axborot agentliklari, internetdagi turli-tuman veb-saytlardan foydalanib dars mazmunini boyitadigan materiallardan, xullas mediata’limdan foydalanish hozirgi zamon o‘qituvchisining eng asosiy vazifasi bo‘lmog‘i darkor.

Adabiyotlar:

- 1.D.Hidoyatova.Samarali interaktiv metodlar 1.0.T.2023 yil
- 2.Sh.Usmonova O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar.“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” xalqaro ilmiy konferentsiya 15.02.2024
- 3.N.Mirzaaxmedova.Raqamli texnologiyalarning ta’lim sohasida qo‘llanishi.Kiberleninka.2022- yil